

MAKTABLARDA MATEMATIKA FANI OYLIGINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH

Usmonov Alisher

JDPI Aniq va tabiiy fanlar o‘qitish metodikasi (Matematika) magistri.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktablarda matematika fani oyligini tashkil etish va o‘tkazish yuzasidan tavsiyalar keltirilgan

Аннотация: В этой статье вы найдете советы, как организовать и провести месячник математики в школах.

Abstract: This article gives you tips on how to organize and run a math month in schools.

Kalit so‘zlar: Fan va texnologiya, fan oyligi, maktab, yosh matematiklar.

Ключевые слова: Наука и техника, месячник науки, школа, юные математики

Key words: Science and technology, science month, school, young mathematicians

Mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. O‘tgan davr ichida matematika ilm-fani va ta‘limini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirildi:

birinchidan, ilg‘or ilmiy markazlarda faoliyat yuritayotgan vatandosh matematik olimlarning taklif qilinishi va xalqaro ilmiy-tadqiqotlar olib borilishi uchun zarur shart-sharoit yaratildi;

ikkinchidan, xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgan yoshlarimiz va ularning murabbiy ustozlari mehnatini rag‘batlantirish tizimi joriy etildi;

uchinchidan, oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqotlarning o‘zaro integratsiyalashuvini ta‘minlash maqsadida Talabalar shaharchasida Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiynomidagi Matematika institutining (keyingi o‘rinlarda — Institut) yangi va zamonaviy binosi barpo etildi. Matematika sohasidagi fundamental tadqiqotlarni moliyalashtirish hajmi bir yarim barobarga

oshirildi, budget mablag‘lari hisobidan superkompyuter, zamonaviy texnika va asbob uskunalar xarid qilindi;

to‘rtinchidan, ilmiy darajali kadrlarni tayyorlashning birlamchi bosqichi sifatida stajor-tadqiqotlik instituti joriy etildi;

beshinchidan, ilm-fan sohasidagi ustuvor muammolarni tezkor bartaraf etish, fan, ta‘lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish masalasini Hukumat darajasida belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri raisiligidagi Fan va texnologiyalar bo‘yicha respublika kengashi tashkil etildi.

Ta‘limning barcha bosqichlarida matematika fanini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, pedagoglarning samarali mehnatini qo‘llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot ishlarining ko‘lamini kengaytirish va amaliy ahamiyatini oshirish, xalqaro hamjamiyat bilan aloqalarni mustahkamlash ishlariga e‘tibor qaratilmoqda.

Shu asnoda, Respublikamiz maktablarida har yili fevral oyi aniq fanlar oyligi hisoblanib, shu oyda matematika fanidan fan oyligi o‘tkazilib kelinmoqda.

Fan oyligini o‘tkazishdan maqsad – dars va darsdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlarni ta‘lim tarbiyadagi ahamiyati, o‘quvchilarni mazkur fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, bilim samaradorligini ko‘tarish, hozirgi zamon fan va texnikasi yutuqlari bilan doimo tanishib borish, o‘rganishga bo‘lgan intilishlarini o‘stirish, o‘qituvchi va o‘quvchining ijodiy hamkorligini targ‘ib etish, fan bo‘yicha o‘quv metodik ishlarni jonlantirish, o‘qituvchilar ijodiy faoliyatlarini kuchaytirish, izlanuvchan, ijodkor o‘qituvchilarni aniqlash, ularning tajribalarini o‘rganish va targ‘ibot qilish, ta‘lim jarayonida qo‘llayotgan uslublarini takomillashtirishdan iboratdir.

Fan oyligi ta‘lim muassasalaridagi o‘quv tarbiya jarayonining zamonaviy talablar darajasida bo‘lishini ta‘minlash, fan o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish, ularning ijodiy izlanishlari va mehnatlarini ro‘yobga chiqarish omili hamdir. Shuni aytish joizki, fan mutaxassislari o‘rtasida fanning o‘ziga xos xususiyatlari, murakkabligi, o‘zlashtirishlik darajasi, hayotdagi o‘rni haqida turli xil fikr-mulohazalar, bahs-munozaralarga olib kelishi mumkin. Tashkil etilajak fan

oyliklari esa bu yo‘nalishga oydinlik kiritish bilan birga, sohadagi mavjud o‘ziga xoslikni, yangiliklarni ham namoyon etadi.

Fan oyligi davomida maktablarning pedagogik jamoasi faolligi, mahoratli kadrlar bilan ta‘minlanganligi, matematika fani xonasining zarur ko‘rgazmali-didaktik materiallar bilan jihozlanishi, ota-onalar bilan maktabning hamkorligini jonlantirish, ularni fandagi yangiliklar, ta‘lim tizimidagi o‘zgarishlar, o‘quvchilarning o‘zlashtirish va bilim samaradorligi ko‘rsatkichlari bilan tanishtirish kabilarga qaratilgan qator ishlar amalga oshiriladi.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish maqsadida oliy o‘quv yurtlari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlariga ekskursiyalar uyushtirish, shahar, viloyatlardagi oliy o‘quv yurtlari professor, olimlari bilan o‘quvchilar uchrashuvlarini tashkil etish ishlari rejalashtiriladi.

Fanga oid devoriy gazetalar chiqarilib, unda qiziqarli ma‘lumotlar, internet sahifalaridan olingan fan yangiliklari yoritiladi.

Maktab, tuman, shahar, viloyat miqyosida eng yaxshi uslubiy birlashma, ijodkor o‘qituvchi va metodistlarning ish tajribalari o‘rganilib, ommalashtiriladi.

Matematika fan oyligida o‘quvchilar bilan sinfdan tashqari vaqtda ularning olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash, fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida, sinflar va maktablararo «Yosh matematiklar», «Nima, qaerda, qachon?» kabi qiziqarli mavzularda festivallar, fan bilimdonlari bellashuvi va bahs-munozaralar o‘tkaziladi. Fan oyligiga bag‘ishlangan tadbirlarda o‘qituvchilar jamoasini yoshlarga bilim berishdagi mehnatlari, ulardagi ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasida qilgan ishlari e‘tirof e‘tiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.05.2020 yildagi PQ-4708-son
2. S. Alixonov.”Matematika o‘qitish metodikasi” . cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.Toshkent-2011.
3. Umumiy o‘rta ta‘limning matematika fanidan davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi .Toshkent-2017.

4. Sulaymonov, F., & Bayzaqov, M. (2021). МАТЕМАТИК МАНТИҚ ELEMENTLARINI ERTA O'RGATISH VA UNING AHAMIYATI. Журнал математики и информатики, 1(2).

5. Mamatov, J., Bayzaqov, M., & Rahimova, S. (2021). BERNULI VA PUSSON TAQSIMOTLARI. Журнал математики и информатики, 1(4).